

**SHARTNOMA**  
(siqilgan gaz yetkazib berish to'g'risida)

Nº 4

«20» yanvar 2022 yil

Shahrisabz shahri

«KESH MA'SHALI» ma'suliyati cheklangan jamiyati nomidan jamiyat Nizomi asosida ish olib boruvchi jamiyat direktori B.Berdiev, bundan keyingi o'rirlarda «SOTUVCHI», deb yuritiladi, hamda Kitob tuman maktabgacha ta'lim bo'limi nomidan Nizomi asosida ish olib boruvchi M.Kenjaev, bundan keyingi o'rirlarda «ISTE'MOLCHI» deb yuritiladi, ikkinchi tomonidan quyidagi shartnomani shu mazmunda tuzdilar:

### 1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1 «SOTUVCHI» o'zining avtomobilarga gaz to'ldirish kompressor shaxobchasi (AGTKSH) orqali siqilgan gazni yetkazib beradi, «ISTE'MOLCHI» mazkur shartnoma bo'yicha **252 m<sup>3</sup>** siqilgan gaz qabul qiladi, jumladan oylar bo'yicha:

1. Yanvar 84	m <sup>3</sup>	7. Iyul m <sup>3</sup>
2. Fevral 84	M	8. Avgust m <sup>3</sup>
3. Mart 84	m <sup>3</sup>	9. Sentabr m <sup>3</sup>
4. Aprel	m <sup>2</sup>	10. Oktabr m <sup>3</sup>
5. May	m <sup>3</sup>	11. Noyabr m <sup>3</sup>
b. Iyun	m <sup>2</sup>	12. Dekabr m <sup>3</sup>

1.2 Mahsulot yetkazib berish - qabul qilish, «SOTUVCHI»ning avtomobilarga gaz to'ldirish kompressor shaxobchasi (AGTKSH) orqali «ISTE'MOLCHI»ning avtomobilari gaz balonlariga gaz to'ldirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

1.3. Mahsulot yetkazib berish vaqtি «ISTE'MOLCHI»ning avtomobilari gaz balonlariga gaz to'ldirish vaqtি hisoblanadi.

### 2. SHARTNOMA SUMMASI VA HISOB KITOBI

2.1. Avtomobilarning gaz ballonlariga to'ldirilayotgan siqilgan gazning shartnoma tuzish vaqtidagi narxi har 1 (bir) m<sup>3</sup> uchun **2600** (ikki ming olti yuz) so'mdan (barcha turdagи soliqlar qo'shilgan holda) yetkazib beriladi.

2.2. Shartnomaning umumiyligi summasi **655 200** (olti yuz ellik besh ming ikki yuz) so'mni tashkil qiladi.

2.3 Xom-ashyo mahsulotlari (tabiiy gaz, elektr-energiya)ni narxlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida hamda soliq normalar o'zgarganda, siqilgan gaz narxi «SOTUVCHI» tomonidan o'zgartiriladi. Siqilgan gaz narxining o'zgarishi yoki shartnomaning boshqa bandlariga kiritiladigan o'zgartirishlar shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi.

2.4 Mahsulot yetkazib berish (Avtomobilarni gaz ballonlariga gaz to'ldirish) mazkur shartnomaning **1.1** bandida kursatilgan taqsimotga asosan har oyda olinadigan siqilgan gaz miqdori qiymatini oldindan 30%, «SOTUVCHI» ning hisob raqamiga kelib tushagandan so'ng amalga oshiriladi.

### **3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI**

3.1 «**ISTE'MOLCHI**» avtomobilarning texnik xolatiga, ish vaqtidagi texnik xavfsizligiga, avtomobil gaz balonlarining ishga yaroqlilik muddatiga hamda yong'in va ekologiya xavfsizligiga javobgalik majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

3.2 Ishlab chiqarishda «**SOTUVCHI**» avtomobilarga gaz to'ldirish kompressor shaxobchasi (AGTKSH)da kompressor uskunalarini va boshqa gaz to'ldirish asbob uskunalarini joriy yoki kapital ta'mirlangan taqdirda «**ISTE'MOLCHI**»ga joriy ta'mir boshlanishidan 3 kun hamda kapital ta'mir boshlanishidan 15 kun avval ogohlantiradi.

3.3. «**SOTUVCHI**» agarda «**ISTE'MOLCHI**» tomonidan belgilangan qoidalar, gaz balon to'ldirish reglamenti va shartnomada belgilangan shartlar bajarilmagan taqdirda, avtomobilarni siqilgan tabiiy gaz bilan ta'minlash to'xtatiladi.

### **4. HISOB-KITOB OLIB BORISH TARTIBI**

4.1. «**ISTE'MOLCHI**»ga berilgan siqilgan tabiiy gazning miqdori «**SOTUVCHI**»ning o'lchov vositasi orqali, ya'ni elektron gaz to'ldirish kalonkalari orqali hisoblanadi. «**ISTE'MOLCHI**»ning avtomobillariga siqilgan gaz bilan ta'minlash avtomobilarga gaz to'ldirish kompressor shaxobchasi (AGTKSH)da Davlat standartlari asosida tasdiqlangan reglamentlar asosida (Reglament M41 8 13.01.1995) yuritiladi.

4.2. «**SOTUVCHI**» tomonidan «**ISTE'MOLCHI**»ga siqilgan gaz olish uchun to'lov kartochkasi (kartochka topshirish va qabul qilish dalolatnomasi asosida beriladi) taqdim etiladi, «**ISTE'MOLCHI**» tomonidan amalga oshirilgan to'lovlar ushbu to'lov kartochkasiga o'tkazilib boriladi. «**ISTE'MOLCHI**»ning vakili avtomobilarga gaz to'ldirish kompressor shahobchasi (AGTKSH) operatoriga kelib to'lov kartochkani taqdim etadi va operator tomonidan «**ISTE'MOLCHI**» ehtiyojiga qarab siqilgan gaz uchun to'lov kartochkasidan pul mablag'i yechib olinib «**ISTE'MOLCHI**»ga chek taqdim etiladi.

4.3. «**ISTE'MOLCHI**»ga berilgan to'lov kartochkasini avtomobilarga gaz to'ldirish kompressor shahobchasi (AGTKSH) operatoriga kelib taqdim etgan shaxs «**ISTE'MOLCHI**» vakili ekanligi tekshirilmaydi va ehtiyojiga qarab siqilgan gaz beriladi cheklov quyilmaydi. To'lov kartochkasini taqdim etgan shaxs bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha «**SOTUVCHI**» javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

4.4. «**SOTUVCHI**» tomonidan «**ISTE'MOLCHI**»ga olingan siqilgan gazi bo'yicha hisobot oy yakunida hisob-varaq (faktura) taqdim etiladi.

### **5. TOMONLARNING MODDIY JAVOBGARLIGI**

5.1 Ushbu shartnomada belgilangandan miqdordadan ortiqcha olinadigan siqilgan tabiiy gaz uchun qo'shimcha kelishuv orqali amalga oshiriladi. Agarda «**ISTE'MOLCHI**» tomonidan olingan tabiiy gaz uchun o'z vaqtida hisob-kitob qilinmagan taqdirda, «**ISTE'MOLCHI**» o'z vaqtida to'lab berilmagan summadan har bir kechiktirilgan kun uchun 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'limgan miqdorida penya to'laydi.

5.2. Agarda «**SOTUVCHI**» tomonidan siqilgan tabiiy gazni o'z vaqtida yetkazib bermagan taqdirda, yetkazib berilmagan siqilgan gaz summasidan har bir kechiktirilgan kun uchun

0.5 foiz miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan siqilgan gaz qiyamatining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

5.3. Tomonlar ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha moddiy javobgardirlar.

## 6. FORS MAJOR

6.1. «SOTUVCHI» va «ISTE'MOLCHI» quyidagi hollarda moddiy javobgarlik uchun javob bermaydilar:

1. Magistral gaz turubalarda, shaxar gaz tarmog'ida va elektr energiya tarmog'ida avariya holatlari bo'lган taqdirda oldindan ogohlantira olmaganligi sababli;
2. Yong'in chiqqanda, yer qimirlashi, suv toshqini va boshqa tabiiy ofatlar ro'y berganda;

## 7. SHARTNOMANING AMAL KILISH MUDDATI

7.1 Ushbu Shartnoma ikki tomonlama imzolangan kundan so'ng G'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tgandan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil "31" dekabrgacha amal qiladi.

7.2 Shartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkisi ham bir xil yuridik kuchga ega.

## 8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yuzaga kelgan nizolarni tomonlar o'zaro hal eta olmagan taqdirda belgilangan tartibda, tegishliligi bo'yicha Iqtisodiy sud orqali hal etiladi.

## 9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. «SOTUVCHI» tomonidan avtomobilarga gaz to'ldirib berish faqatgina mazkur shartnomaning ilovasida ko'rsatilgan avtomobilarga amalga oshiriladi.

## 10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA TO'LOV REKVIZITLARI.

### «KESH MA'SHALI» MChJ

**Manzil:** Shahrisabz shahri  
Sarosiyo MFY, tel № 522-50-76  
R/s 2020800404800725001  
Turonbank Shahrisabz filiali  
MFO 00989, INN 301214318  
**OKED** 47300 Kod NDS: 310020042798



Direktor

B.Berdiev

### Kitob tuman maktabgacha ta'lim bo'limi

**manzili** Kitob t. B.I.Yuli ko'chasi № 45  
tel\faks 75-542-73-16  
sh/x/r: 100022860102327098602251002  
INN 305153637 IFUT 85100  
O'z.Res.Moliya Vazirligi G'aznachiligi  
x/r 23402000300100001010  
**bank nomi:** Markaziy Bank Toshkent shaxar  
bosh boshqarmasi xisob-kitob kassa markazi

Raxbar

M.Kenjaev



## **YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA**

### **1. Loyihaning turi.**

Shartnoma

### **2. Loyihaning nomi.**

Kitob tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi hamda “KESH MA’SALI” MCHJ o‘rtasidagi 655 200 (olti yuz ellik besh ming ikki yuz) so‘mlik siqilgan gaz yetkazib berish to‘g‘risidagi xo‘jalik aloqasi haqida.

### **3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot.**

Kitob tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga yuridik xulosa olish uchun 20-yanvar 2022-yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh yuriskonsulti**

**N. Manzilov**



20-yanvar 2022-yil